

## AN'ANAVIY XONANDALIKDA "UZTOZ-SHOGIRD" AN'ANASI

**Nabiyev Jalol Jumanazarovich**  
**Qurbonov Olimjon Panjiyevich**  
**Avazov Nishon Norbekovich**

*Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o'qituvchilari, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** *Maqolada an'anaviy xonandalikda ustoz shogird an'anasi hamda xonandalikda ovoz masalasi borasida fikrlar berib o'tilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *ustoz-shogird an'anasi, ovoz, xonanda, musiqa ijrochiligi, nafas, jo'rovoz.*

O'zbek an'anaviy xonandaligida o'ziga xos xususiyatlaridan biri jo'rovoz bo'lib ijro etishdir. Jo'rovozlik o'zbek musiqa ijrochiligining sehriga boy jarayonlaridan biri sifatida amaliyotda qo'llanilib kelingan. Odatda, ikki yoki undan ortiq ovozlarning, birgalikda, bir vaqtda ijro etishi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Xonandalarning bir-biriga mos holda tarkiblash va asarni chiroyli talqiniga erishish uchun xonandalar bir qator tabiiy va amaliy jihatlarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi.

Shu bois jo'rovozlikning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari mavjud ekanligi qayd etiladi. Har bir xonanda ijro etadigan asar nafas bilan bog'liq bo'lganligi bu jihatni ko'rsatib beradi. Ikki va undan ortiq xonandalarning nafas olishlari va talqinda nafasni bir-biriga mos holda qo'llashlari ahamiyatli ekanligini e'tirof etish lozimdir. Shuning uchun, xonandaning o'quv jarayoni, asarni o'zlashtirishi va mashq davri juda muhim hisoblanadi. Bu borada xonanda, ayniqsa mumtoz musiqa xonandasi ustoz ko'rish shart.

Ta'lim jarayonida ham ustozlarning e'tibor beradigan tomonlari, xonandalarga xos jihatlar hisoblanadi. Chunki, tarbiyalash davrida ularning xonandalarga xos jihatlari, ayniqsa ovozlarni egiluvchanlik, ta'sirchanlik va talqin etishga qodir bo'lishlari alohida ahamiyatga egadir. Aslida, ansambl ijrochiligi uchun xonandalardagi bu jihatlarning mutanosibliklari tanlab olinadi.

Musiqa ijrochiligi, xalq musiqa ijodiyoti va janrlari asosida rivojlanadi. Ijro an'analari va yo'llari ham ijrochilik amaliyoti jarayonida kengayib, yanada boyib borgan. Aslida ijrochilik amaliyoti og'zaki tarzda og'izdan-og'izga, avlodlardan–avlodlarga o'tib kelgan san'at turidir. Ushbu jarayon xalqimizning ta'limi bilan tutash bo'lgan "ustoz – shogird" an'analari negizida kamol topib kelgan.

An'anaviy xonandalik ta'limining bizgacha etib kelgan uslubi, bu albatta ustoz-shogirdlik maktabidir. An'anaviy xonandalikni kasb etish niyatida bo'lgan har bir ovoz egasi albatta muqim bir ustozni etagini ushlab, ustozdan ijrochilik, xonandalik sirlarini o'zlashtirishga harakat qilgan. Bu amaliyot albatta o'zining qoidalariga ega bo'lganligini alohida qayd etish lozim. Chunki, musiqiy qobiliyat, ovoz imkoniyati va san'atga ishtiyoqi bo'lmaganlar bu kasbga murojaat etishmagan. Qobiliyati borlar esa o'z ustoziga mehr

qo'yib, sohasining mushkullik tomonlarini engib, kasb o'rganishga harakat qilib kelgan. Xonandalikning eng muhim xislatlaridan biri ham shunda deyish lozimdir.

An'anaviy musiqa xonandasining ijroviy imkoniyatlarida qanday jihatlar bo'lishi kerak, yoki bular nimadan iborat ekanligini ayrim tomonlari, bir qator professional ashula ijrochiligi amaliyotining uslubiyotida ta'rif etilgan kitoblarda o'z ifodasini topgan. Xususan ularda, an'anaviy xonandalar uchun quyidagi xususiyatlar muhimligi ham nazariy va amaliy ijobatini topgan. Ya'ni: 1) tabiiy jihatlar – iste'dod, ovoz, tasavvur, idrok, tafakkur, slux (tinglash qolbilyati), es(hofizasi kuchli) va talqin; 2) amaliy, ya'ni amaliyotda o'zlashtirishi kerak bo'lgan va ko'nikmalar hosil qilishi lozim bo'lgan jihatlar: slux (tinglash qolbilyati)ning muntazam mashg'uloti; so'z va ohanglarni yod olish ko'nikmasini rivoji; ohang va so'zlarni idroklagan holda talqin etish ko'nikmasi; aniq talaffuz; ravon va mazmunli talqin; musiqani tinglash va ijroda unga ergashish; ovozni to'g'ri ishlatish; jo'rovovni tinglash va birgalikda talqin etish, ya'ni hamnafasni sezib ijro etish hamda asarga ijodiy munosabatda bo'lish. Aslida bu jihatlar xonandalarning kasbiy-professional ko'nikmalari bo'lishi lozim.

Xonandaning muhim quroli bu – ovozdir. Ovoz ham qobiliyatli bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning ustiga u Xudodod bo'lsa undan ham a'lo bo'ladi. Demak, ovoz ham turli xil bo'lishi muqarrardir. Ma'lumki, musiqada birlamchi jarayon bu - tovushdir. Tovush chiqarish uchun unga turli vosita, harakatlar bilan erishish mumkin. Tovushlarni ma'noli, his-tuyg'ular orqali mukammal tarannum etishga eng avvalo inson ovozi qodirdir.

O'zining "Xonandalik san'ati" kitobida musiqashunos S.Begmatov tovushni shunday ta'riflaydi. – "Xonanda ovozida tovush kuchi, balandligi, qattiqligi va barchasini uyg'unligida hosil bo'ladigan tembri mavjud. O'zbek an'anaviy xonandalik san'atida shu bilan birga ko'rinishga ega bo'lmagan, lekin his etishda anglanadigan ovoz tarovati, mungi, dardi, bezagi, xirgoyisi bor bo'lib, darhaqiqat to'laqonli ma'noga ega bo'lgan ovozni tashkil etadi. Chunonchi, mumtoz xonandalik amaliyotida aynan mana shu jihatlar ijroning ehtirosli xususiyatlari sifatida ijobiy baholanilib kelingan"<sup>85</sup>.

Albatta xonanda deganda ovozning mavjud barcha imkoniyatlaridan keng foydalana olish, ularni xonishda ko'rsata bilish, tinglovchilarga ta'sir o'tkaza olish eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan xonandaning jihatlari hisoblanadi. Ana shunday xonandalar qashqadaryoda ham o'zining ovozi bilan ajralib turgan.

Qashqadaryo vohasi ham o'zining mard, jasur insonlari, san'atkorlari va bastakorlari bilan o'zbek musiqa ijrochiligida ajralib turadi. Qashqadaryo vohasida dunyoga kelgan hamda bulbul navosidek mayin, o'ziga xos dilbar ovoz sohibi Tojiddin Murodovning dunyoga kelishi san'at ixlosmandlari uchun chinakam yangilik bo'lgan edi.

Tojiddin Murodov tug'ilib o'sgan Qashqadaryo vohasining cho'l hududida joylashgan Jeynov qishlog'ini kim bilmaydi, deysiz. U chorvadorlar, g'allakorlar diyori. Ko'hna Jeynovning qadimgi tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, o'lmas an'alarining o'zi bir kitobdir.

<sup>85</sup> S.Begmatov. Xonandalik san'ati.-T., 2007 y. 20-bet.

Zargarona kasbga, hunarga ega odamlarning hayoti, yashash tarzi o'zi bir doston. Tilini, dinini, e'tiqodini yuqotmagan el-elat, xalq o'lmaydi, yashaydi, degan aqidani jeynovliklar misol ko'rish mumkin.

Tojiddin Murodovning qo'shiqlari chegara va masofa bilgan emas. Ozarbayjon, turkman, tojik xalqlari xonadonlariga xonandaning ovozi kirib borgan. 80-yillarda Bokuda bo'lib o'tgan o'zbek adabiyoti, san'ati dekadasida bastakor Raxmatjon Tursunovning mashhur Ozarbayjon shoiri Samad Vurgunning «Agar sendan...»(Razzoq Abdurashid tarjimasi) gazali Tojiddin Murodovning ijrosida yangraydi. Ashula yozilgan tasma Samad Vurgunning uy muzeyiga tantanali ravishda topshiriladi. Buni ikki el-o'zbek va ozarbayjon elining bir-biriga yo'llagan musiqali salomi desa bo'ladi. Tojiddin Murodov Turkmaniston xalq artisti Bobomurod Xamdamov, Tojikiston xalq xofizlari Jurabek Murodov va Jurabek Nabiyevar bilan ijodiy xamkorlik qilib, tojik va turkman xalqlarining ham sevimli xofiziga aylangan edi. Tojiddin Murodovning shogirdlari o'g'li Sharofiddin Muradov va Muradovlar sulolasi vakillari ustozni san'atini elga tanitib kelmoqdalar.

Ovoz yillar davomida xonandaning imkoniyat doirasida o'z-o'zidan, ya'ni ashula o'rganish jarayonida asta sekin shakllanib, o'z yo'lini, pardasini topa boradi. An'anaviy ijrochilikda, nola qochirimlar, nimpardalar ustida juda ko'p yillar ishlash mobaynida haqiqiy o'zbekona ovoz yuzaga keladi. Ustozlar: - "bitta hofiz, xonanda 15-20 yilda etuk ashulachi bo'lib etishadi" – deb aytishadi".<sup>86</sup> SHu bois ovozni avvalo individual tarbiyalash juda muhimdir. Saboq jarayonida jo'rovoqlik ijro yo'llarini shakllantirish esa, o'zlashtirilgan mahorat darajasida o'zini namoyon etadi. Jo'rovoqlik yoki ansambl bo'lib ijro etishning ijobiy tomonlari xonandada professionalizmni shakllantiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'lchiyeva M. an'naviy yakka xonandalik -T, 2018
  2. Bo'riyeva K. Ansambl sinfi. T. 2018
  3. Karimova M. An'anaviy yakka xonandalik.T. 2018
  4. Примов Р. Т., Шоназаров З. У. Роль музыки в формировании личности, духовности и мировоззрения //Вестник науки и образования. – 2022. – №. 4-2 (124). – С. 76-78.
- S.Begmatov. Xonandalik san'ati.-T., 2007 y. 20-bet.

<sup>86</sup> K.Bo'rieva, "An'anaviy xonandalik" (ayollar ovozlari uchun).-T., 2008 yil. 4 bet.